



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2026-yil 22-aprel, № 79 (9250)

Chorshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## JSST BILAN HAMKORLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-aprel kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori Tedros Adxanom Gebreyesusni qabul qildi.



Ushbu nufuzli tashkilot bilan milliy sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va mustahkamlash borasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Keyingi yillarda JSST bilan hamkorlik sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgani ta'kidlandi. Sog'liqni saqlash sohasidagi keng ko'lami va tizimli islohotlar tashkilotning ekspert-maslahat ko'magi hamda uning xalqaro standartlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Hamkorlik doirasida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator strategik hujjatlar ishlab chiqildi. Malakali tibbiyot xodimlari tayyorlanmoqda, birlamchi tibbiy-sanitar yordam, diagnostika va kasalliklar profilaktikasi tizimlari takomillashtirilmoqda, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilmoqda. JSST bosh direktori mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholab, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirish, onalar o'limini kamaytirish va raqamli tibbiyotni rivojlantirish borasida erishilgan salmoqli natijalarni alohida e'tirof etdi. Uchrashuv yakunida farmatsevtika sohasini tartibga solish tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasida raqamli qurilish aniqlangan hollardagiga ijara shartnomasi yangi muddatga uzaytirilmasligi belgilanmoqda. Shuningdek, yer toifasini o'zgartirish va nobudgarchilik to'lovlarini hisoblash bilan bog'liq jarayonlar haligacha qog'oz shaklida yuritilayotgani tanqid qilindi. Bu esa kelishuv va qaror qabul qilish muddatining cho'zilishiga, investorlar noroziligiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan barcha jarayonlarni raqamlashtirish, yerdan maqsadli foydalanish, suv samaradorligi va tuproq sifati kabi mezonlar asosida yerdan foydalanish samaradorligini baholash tizimini yo'lga qo'yish vazifasi qo'yildi. Yerga bo'lgan ijara huquqini moliyaviy vosita sifatida kengaytirish, uni nafaqat tijorat kreditlari, balki lizing, ipoteka va bank kafolatini olish uchun ham garovga qo'yish imkoniyatini yaratish zarurligi qayd etildi. Yer uchastkasini bo'sh turgan yer sifatida hisobga olish tartibini soddalashtirish, yerlarni qayta ijara berishda shartnomalarni haq evaziga yoki tekina tuzish imkonligini aniq belgilash, shundan kelib chiqib, yer oldi-sotdisiga oid huquqbuzarliklar uchun jinoyi javobgarlik choralarini qayta ko'rib chiqish taklif etildi. Qolaversa, yer nazorati yo'nalishida javobgarlikni kuchaytirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, yerlarni o'z boshimchalik bilan egallab olish uchun javobgarlikni faqat sug'oriladigan yerlar uchun emas, qolgan barcha turdagi yer uchastkalariga nisbatan ham tatbiq etish zarurligi ta'kidlandi. Temir yo'llari, avtomobil yo'llari, aeroportlar, aerodromlar, aeronavigatsiya obyektlari, suv inshootlari va tarmoqlarini qurish maqsadlarida yerlarning toifasi o'zgartirilganda nobudgarchilik to'lovidan ozod qilish, yer jamoat ehtiyojlarini uchun olib qo'yilganida to'lanadigan kompensatsiya to'lovlarini soliqqa tortmaslik bo'yicha takliflar bildirildi. Kelgusida qishloq xo'jaligi yerlari ijara uchun hududlardagi 13 ta direksiya orqali, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlar esa 14 ta investitsiya kompaniyasi orqali xizmat ko'rsatilishi, ushbu tashkilotlar o'z yo'nalishlarida davlat organlari va tadbirkorlar o'rtasida "ko'priq" vazifasini bajarishi ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari yer islohotlarini yangi bosqichga olib chiqish, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, tadbirkorlar uchun yanada ochiq va tushunarli tizim yaratish, shuningdek, sohada raqamlashtirishni jadalashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG'ISTONGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Ostona shahriga keldi.

Poytaxt aeroportida davlatimiz rahbarini Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, O'zbekiston yetakchisi 22-aprel kuni Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishida ishtirok etadi.

O'ZA.

## MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIK

Uning yangi strategiyalari Ostona sammitida belgilanadi

O'zbekiston Prezidenti 21-22-aprel kunlari Ostona shahrida bo'lib o'tadigan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishida ishtirok etadi.

Tadbirlar davomida Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo'lida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, dolzarb ekologik, iqlim va suv muammolariga yechim topish masalalari muhokama qilindi. Prezidentimiz ushbu masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadi, milliy pavilyonlardan iborat maxsus ekologik ko'rgazmaga tashrif buyuradi. Sammitlar yakunida qator muhim hujjatlar qabul qilinishi kutilmoqda.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) ta'sischi davlatlari rahbarlarining ushbu uchrashuvi alohida ahamiyatga ega. Chunki 2027 - 2029-yillarda jamg'armaga raislik vazifasi O'zbekistonga o'tishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz uchun bu 1997 - 1999 va 2013 - 2016-yillardagi raislik davrlaridan keyin tarixda uchinchi mandat bo'ldi. 2023-yilda Dushanbe shahrida Tojikiston raisligidagi Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan majlisda O'zbekiston yetakchisi tomonidan muhim ahamiyatga molik qator takliflar bildirilgan edi.

O'ZA.

## YER RESURSLARI: SHAFFOFLIK VA RAQAMLASHTIRISH — SAMARADORLIK OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yer resurslaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So'nggi besh yilda mamlakatimizda yer munosabatlarini isloh qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, yer ajratish vakolati hokimlardan olinib, yer uchastkalarini auktsion orqali realizatsiya qilish tartibi joriy etildi. Shu davrda 616,3 ming gektar yer auktsion orqali ajratildi, byudjetga 1,4 trilyon so'm tushum ta'minlandi.

Eng muhimi, yerning haqiqiy egasi paydo bo'lishi natijasida har bir gektardan olinayotgan daromad 3 karra oshib, 50 - 60 million so'mga yetgan. Bugun ushbu yerlarda har yili 539 trilyon so'mlik mahsulot yetishtirilib, 2,1 milliard dollarlik eksport amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohada hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar ham borligi ko'rsatib o'tildi.

Jumladan, yerlar auktsion orqali ajratilayotgan bo'lsa-da, ijarachilarning undan foydalanishdagi mustaqilligi hali yetarli emas. Shu sababli 117,6 ming gektar yer hozirgacha sotilmasdan turgani.

Shu bois qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berishning yangi tizimini qo'llash, joriy yilda yana 100 ming gektar yerni yangi tartib asosida auktsionga chiqarish rejalashtirilgan. Bu borada, ayniqsa, yerdan foydalanishda iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

O'tgan yili vodik viloyatlari, Jizzax, Toshkent viloyatlari va

Qoraqalpog'istonda sotilgan yerlarda ekinlarni mustaqil joylashtirish bo'yicha joriy etilgan tajriba yaxshi samara bergani ta'kidlandi. Xususan, 2025-yilda 20 ming gektar yerning 16 ming gektarida tadbirkorlar o'zlarini tanlagan yuqori daromadli va eksportbop ekinlarni ekib, 150 million dollarlik eksport uchun zamin yaratgan. Endi ushbu tajribani kengaytirish, yerdan foydalanuvchilarga yanada ko'proq iqtisodiy erkinlik berish muhimligi qayd etildi.

Sanoatlashgan plantatsiya va chorvachilik loyihalari uchun 50 gektardan 500 gektargacha yer uchastkalarini auktsionga chiqarish, shu asosida joriy yilning o'zida har bir viloyatda kamida 5 tadan yirik loyihalarni boshlash belgilandi. Ushbu loyihalar uchun suv va elektr ta'minoti xarajatlarini qoplab berish, 3 yillik imtiyozli davr bilan 7 yilgacha arzon kreditlar ajratish, kredit foiz stavkalarini kompensatsiya qilib berish, yetishtirilgan mahsulotni qadoqlash xarajatlarining 50 foizgacha qismini subsidiyalash kabi qator moliyaviy qo'llab-quvvatlash joriy etilishi ta'kidlandi.

Taqdimotda yerdan yuqori daromad olishda ilg'or xorijiy tajribani, ayniqsa, chet elning zamonaviy agrotexnologiyalarini keng qo'llash masalasi ham alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, bu jarayonda milliy manfaatlarni himoya qilish lozimligi qayd etildi.

Xususan, xorijiy investorlarga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berishning tartibi va shartlari qayta ko'rib chiqildi. Bundan buyon ularga faqat viloyat hokimliklari huzuridagi direksiyalar orqali, investitsiya miqdori kamida 10 million dollar bo'lgan loyihalar doirasida, yaylov, lalmi va foydalanishdan chiqqan yerlarni aylantirishga qaytarish sharti bilan ikkilamchi ijaraga berish tartibi qo'llanadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlarini olish bo'yicha auktsionda faqat mahalliy dehqon va tadbirkorlar ishtirok etishini belgilash lozimligi ta'kidlandi. Mudofaa, chegara, tarixiy-madaniy yerlar va o'rmon fondi yerlari faqat mamlakatimiz fuqarolariga beriladi. Ayni paytda yerlarni ijaraga berish muddatini barcha turdagi yerlar uchun, shu jumladan, sanoat va qurilish loyihalarini amalga oshiradigan chet ellik investorlar uchun ham 49 yil etib belgilash taklif etildi.

Bugungi kunda qariyb 100 ming gektarga yaqin yerning ijara muddati tugagan. Shu bois tadbirkorlar ushbu yerlarni qayta auktsionga chiqarmasdan, ijara muddatini uzaytirish bo'yicha qulay va shaffof tartib joriy etish zarurligini bildirmoqda. Taqdimotda mazkur jarayonni davlat xizmatlari markazlari va elektron platformalar orqali amalga oshirish, kadastr, qishloq xo'jaligi va adliya tizimlarini o'zaro integratsiya qilish, e'tirozlar bo'lmagan taqdirda qishloq xo'jaligi yerlari uchun 30

yilgacha, noqishloq yerlar uchun 49 yilgacha uzaytirish tartibini joriy etish taklif qilindi. Soliq yoki ijara to'lovidan qarzdorlik, sud nizosi yoki noqonuniy qurilish aniqlangan hollardagiga ijara shartnomasi yangi muddatga uzaytirilmasligi belgilanmoqda.

Shuningdek, yer toifasini o'zgartirish va nobudgarchilik to'lovlarini hisoblash bilan bog'liq jarayonlar haligacha qog'oz shaklida yuritilayotgani tanqid qilindi. Bu esa kelishuv va qaror qabul qilish muddatining cho'zilishiga, investorlar noroziligiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan barcha jarayonlarni raqamlashtirish, yerdan maqsadli foydalanish, suv samaradorligi va tuproq sifati kabi mezonlar asosida yerdan foydalanish samaradorligini baholash tizimini yo'lga qo'yish vazifasi qo'yildi.

Yerga bo'lgan ijara huquqini moliyaviy vosita sifatida kengaytirish, uni nafaqat tijorat kreditlari, balki lizing, ipoteka va bank kafolatini olish uchun ham garovga qo'yish imkoniyatini yaratish zarurligi qayd etildi. Yer uchastkasini bo'sh turgan yer sifatida hisobga olish tartibini soddalashtirish, yerlarni qayta ijara berishda shartnomalarni haq evaziga yoki tekina tuzish imkonligini aniq belgilash, shundan kelib chiqib, yer oldi-sotdisiga oid huquqbuzarliklar uchun jinoyi javobgarlik choralarini qayta ko'rib chiqish taklif etildi.

Qolaversa, yer nazorati yo'nalishida javobgarlikni kuchaytirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, yerlarni o'z boshimchalik bilan egallab olish uchun javobgarlikni faqat sug'oriladigan yerlar uchun emas, qolgan barcha turdagi yer uchastkalariga nisbatan ham tatbiq etish zarurligi ta'kidlandi.

Temir yo'llari, avtomobil yo'llari, aeroportlar, aerodromlar, aeronavigatsiya obyektlari, suv inshootlari va tarmoqlarini qurish maqsadlarida yerlarning toifasi o'zgartirilganda nobudgarchilik to'lovidan ozod qilish, yer jamoat ehtiyojlarini uchun olib qo'yilganida to'lanadigan kompensatsiya to'lovlarini soliqqa tortmaslik bo'yicha takliflar bildirildi. Kelgusida qishloq xo'jaligi yerlari ijara uchun hududlardagi 13 ta direksiya orqali, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlar esa 14 ta investitsiya kompaniyasi orqali xizmat ko'rsatilishi, ushbu tashkilotlar o'z yo'nalishlarida davlat organlari va tadbirkorlar o'rtasida "ko'priq" vazifasini bajarishi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari yer islohotlarini yangi bosqichga olib chiqish, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, tadbirkorlar uchun yanada ochiq va tushunarli tizim yaratish, shuningdek, sohada raqamlashtirishni jadalashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

## TASHABBUSLARNI ILGARI SURISHDA MUHIM PLATFORMA

Joriy yilning 21-aprel kuni "Markaziy Osiyo va Ozarbayjon ayollari: ustuvor vazifalar va qo'shma harakatlar" mavzuida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon yetakchi ayollari muloqotining onlayn majlisi bo'lib o'tdi.

### Yig'ilish

Tadbirda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon Respublikasi parlamentlari vakillari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mintaqaviy tuzilmalari rahbarlari ishtirok etdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva tadbirni ochib berar ekan,

Muloqotning xalqaro maydondagi nufuzi izchil ortib borayotganini, u konstruktiv hamkorlik, ilg'or tajriba almashish va qo'shma tashabbuslarni ilgari surish uchun muhim platformaga aylanganini ta'kidladi. Shuningdek, uning doirasida bugunga qadar 20 ga yaqin hujjatlar qabul qilangani va qator amaliy tashabbuslar ilgari surilgani qayd etildi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi

ayollari muloqotiga 2020-yil dekabr oyida O'zbekiston tashabbusi bilan asos solingan. 2021-yilda mazkur platformaga O'zbekiston raislik qilgan. So'nggi besh yilda Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida Muloqot majlislari o'tkazilib, dolzarb masalalar O'zbekiston yana raislik qiladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi sammitida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning qatnashgani qayd etildi. Bu esa Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqotiga Ozarbayjonning qo'shilishi uchun muhim omil bo'ldi.

O'ZA.

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## INSON MANFAATLARI USTUVORLIGI VA HUDUDIY RIVOJLANISH KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda sanoat xavfsizligi bo'yicha munosabatlarni tartibga solishga, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatining huquqiy asosini yaratishga, korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarida mahalliy Kengashlar rolini oshirishga, O'zbekistonning ayrim xalqaro bitimlarga qo'shilishini tasdiqlashga qaratilgan qonun loyihalarida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritishga doir qonunchilikka taklif muhokama qilindi. Shuningdek, ayrim viloyatlarining ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham ko'rib chiqildi. Ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qo'mitalarda, ishchi guruh yig'ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha muhokamadan o'tkazilgani qayd etildi.

### Qiziriq tumani hududini kengaytirish taklif etilmoqda

Deputatlar dastlab "Surxondaryo viloyatining Qiziriq va Jarqo'rg'on tumanlari chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi palata qarori loyihasini ko'rib chiqdi.

Mazkur masala yuzasidan viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ma'ruza qildi. Ta'kidlanganidek, taklif etilayotgan chegara o'zgartirishlariga muvofiq, Jarqo'rg'on tumanidan 4 740 gektar yer

maydonini Qiziriq tumani tarkibiga o'tkazish nazarda tutilmoqda.

Bu tumanlarni iqtisodiy jihatdan boshqarish, 731 ta oilada yashovchi 4 230 nafar aholining turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga zamin yaratadi.

O'ZA.

## MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIK

Uning yangi strategiyalari Ostona sammitida belgilanadi

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish; ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish; jamg'armaning ishchi organlariga xalqaro konsultantlar ishtirokida Amudaryo va Sirdaryo havzalarini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan rejalar ishlab chiqish; suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda, yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish kabi ilg'or tashabbuslarni ilgari surgandi.

1993-yilda asos solingan OQXJ o'tgan davr mobaynida mintaqaviy davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonch va sheriklikning ajralmas mexanizmi aylandi.

2008-yildan buyon BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan ushbu noyob platforma suv resurslarini boshqarish, ekologiyani sog'lomlashtirish va Orolbo'yi hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kompleks tarzda hal qilishda yagona mintaqaviy tuzilmaga aylandi.

Markaziy Osiyo – so'nggi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatlariga tobora ko'proq duch kelayotgan va dunyoda undan eng ko'p zarar ko'rishi mumkin bo'lgan mintaqalardan biri. So'nggi 70 yil

ichida Markaziy Osiyoda harorat Selsiy bo'yicha 1,5-2 darajaga ko'tarildi. Bu ekologik muammolarning keskinlashuviga, muzliklarning erishi va cho'llanishning tezlashishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi ortib bormoqda. Bugungi kunda 37 million nafardan ortiq odamlar, asosan, suv ta'minotining pasayishi, tegishli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq muammolar bo'lgan, suv resurslari keskin yetishmaydigan hududlarda yashaydi.

Yevroosiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblariga ko'ra, 2025 – 2030-yillarda mintaqaviy mamlakatlari uchun suv va iqlim infratuzilmasiga zarur investitsiyalarning umumiy hajmi qariyb 29,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Orolbo'yi mintaqasining holati vaziyatni qiyinlashtirmoqda – shamollar Orolning qurigan tubidan har yili taxminan 15 – 75 mln. tonna qum, chang va tuzni uchirib ketadi. Bu esa sezilarli masofalarda havoning sifatini yomonlashtiradi va bevosita ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi.

Shu sababdan ham so'nggi yillarda Markaziy Osiyoning mintaqaviy kun tartibida ekologik masalalar tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Suv resurslari bilan bog'liq muammolar, yerlarning degradatsiyasi, iqlim o'zgarishi, Orolbo'ying holati endilikda mintaqaviy mamlakatlari tomonidan alohida emas, balki mintaqaning umumiy barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari kontekstida ko'rilmoqda.

Mintaqaviy mamlakatlarning iqlim bilan bog'liq xalqaro tadbirlarda faollashganini

ham ta'kidlash joiz. Xususan, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi konferensiyalarida Markaziy Osiyo mamlakatlari "5 mamlakat – 1 mintaqaviy ovoz" tamoyili ostida chiqish qilib, iqlim muammolari bo'yicha milliy ustuvor masalalar va umumiy mintaqaviy yondashuvlarni taqdim eta boshladi.

Orol inqirozi oqibatlariga moslashish masalasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, Orol dengizi qurigan tubining O'zbekiston tomonida so'nggi 5 yilda 2 mln. gektar o'rmonzorlar barpo etildi, Qozog'iston tomonida 1 mln. gektardan ortiq maydonlarda o'rmon-melioratsiya ishlari olib borildi.

Mintaqaviy hamkorlikning yorqin natijalaridan biri – Shimoliy Orolning vaziyatini yaxshilash bo'ldi. Sirdaryo bo'yidagi suv omborlarining ish tartibini muvofiqlashtirish va davlatlararo kelishuvlarni bajarish hisobiga so'nggi uch yilda dengizga 6 mlrd. kub metr dan ortiq suv kelib tushdi. Natijada Shimoliy Orolning hajmi 2022-yil oxiridagi 18,9 mlrd. kub metr dan 2025-yil oxirida 23 mlrd. kub metr gacha oshdi.

Bilim almashinuvi va ilmiy ekologik ekspertiza yo'nalishida ham mintaqaviy hamkorlik kengaymoqda. O'zbekistonda atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish bo'yicha Markaziy Osiyo universitetining tashkil etilishi ushbu hamkorlikning natijasi bo'lib, mintaqada shu yo'nalishda kadrlar tayyorlash va qo'shma tadqiqotlarni rivojlantirish uchun yangi maydonga aylandi.

Ostona shahrida bo'lib o'tadigan mintaqaviy ekologik sammitlar iqlim masalada umumiy maqsadga erishish yo'lidagi yana bir qadam bo'ladi. Iqlim

va ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi va amaliy yechimlarni ishlab chiqish nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarining global iqlim kun tartibiga qo'shgan hissasini oshirishga, balki ekotizimlar barqarorligini ta'minlash, havo ifloslanishini kamaytirish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va ustuvor ravishda suv hamda energetika resurslaridan

Shu bilan birga, yurtimizda davlatimiz rahbari boshchiligidagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Atrof-muhitni asrash, tabiatni yashnatish maqsadli mujassamlashgan ushbu loyiha doirasida har yili 200 mln. tup ko'chat ekish aksiyasi muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

ishga tushirildi. Bundan tashqari, cho'llanishni kamaytirish uchun Xitoy tajribasi asosida joriy yil ilk bor Armasoy, Qorako'l, Muborak, Karmana va Nukus tumanlarida 50 gektar maydonda suvsizlikka chidamli galofit bog'lari yaratildi.

Mintaqaviy mamlakatlarning 2023-yilgi Dushanbe sammitida ilgari surgan tashabbuslari Ostona'dagi muzokaralarning asosiy kun tartibini belgilab beradi. Xususan, O'zbekiston tomonidan har bir mintaqaviy loyiha bo'yicha moliya va muddatlar aniq belgilangan "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, suv tejoychi texnologiyalar bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish hamda Afg'onistonni, xususan, Qo'shpana kanali ta'sirini o'rganish orqali mintaqaviy suv muloqotiga jalb etish tashabbusi bilan chiqmoqda.

Yig'ilishda Orol dengizi va uning havzasidagi ekologik vaziyat, barqaror rivojlanish, oziq-ovqat va energiya xavfsizligi borasidagi yirik loyihalar ko'rib chiqildi. Xususan, hozirda Orol dengizi havzasida 42 ta ekologik loyiha amalga oshirilyapti. Shuningdek, Jahon banki ko'magida ikki mintaqaviy grant loyihasini ishga tushirish masalasiga e'tibor qaratiladi.

Ostona sammitlari Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik ofatga qarshi kurashda naqadar birlashganligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'ladi. Eskirgan sug'orish usullaridan raqamli boshqaruv tizimiga o'tish, siyosiy iroda va institutsional yangilanishlar mintaqaviy tinchlik va farovonlikning kafolatidir. "Dunyo" AA.

**“Mintaqaviy mamlakatlarning iqlim bilan bog'liq xalqaro tadbirlarda faollashganini ham ta'kidlash joiz. Xususan, BMTning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi konferensiyalarida Markaziy Osiyo mamlakatlari "5 mamlakat – 1 mintaqaviy ovoz" tamoyili ostida chiqish qilib, iqlim muammolari bo'yicha milliy ustuvor masalalar va umumiy mintaqaviy yondashuvlarni taqdim eta boshladi.”**

oqilona foydalanish bo'yicha mintaqaviy vazifalarni hal etishga ham xizmat qiladi.

So'nggi yillarda davlatlararo kelishuvlarga qat'iy rioya etilishi natijasida turli loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. 2018-yilda BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondining ishga tushirilishi siyosiy tashabbuslarga muhim qo'shimcha bo'ldi. O'zbekiston taklifi bilan tashkil etilgan mazkur fond mintaqadagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilish uchun donorlik resurslarini birlashtirish va xalqaro hamjamiyatni muvofiqlashtirishning samarali mexanizmi aylandi.

O'tgan davrda 2 ming gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog' va yashil jamoat parki, 47 ta massivida "Yangi O'zbekiston bog'lari" barpo etildi. Respublikaning tog', cho'l va adirlarida 256 ming gektar o'rmon tashkil qilindi. Orolning qurigan tubida 2 mln. gektar maydonda yashil qoplamali himoya o'rmonzorlari yaratildi. Shamol va qumchang bo'ronlari zarari ta'sirining oldini olish maqsadida 33 ta tumanda 60 kilometrli "yashil belbog" hosil qilindi.

2025-yilda Xo'jayli, Yangibozor, G'ijduvon, Baliqchi va Ohangaron tumanlarida yiliga 5,5 mln. tup manzarali daraxt ko'chati yetishtirish imkonini beradigan zamonaviy ko'chatxonalar

## TASHABBUSLARNI ILGARI SURISHDA MUHIM PLATFORMA



Tadbirda yil davomida O'zbekiston raisligi doirasida amalga oshiriladigan

ustuvor vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Xususan, anjuman doirasida tadbirkor ayollar o'rtasidagi muloqotni faollashtirish, biznes-forumlar tashkil etish, a'zo davlatlarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya

hukumatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali tajriba almashinuvi yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, may oyida Buxoro shahrida o'tkaziladigan Osiyo xotin-qizlari ikkinchi forumi doirasida "Ilim-fanda ayollar yetakchiligi" mavzuida anjuman tashkil etish nazarda tutilgan. Ushbu anjuman davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Ozarbayjon ayol olimlari o'rtasida ilmiy hamkorlik va muloqot platformasini shakllantirish,

shuningdek, qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalari hamda innovatsion tashabbuslarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, Samarqand shahrida tashkil etiladigan Yosh parlament a'zolarining 12-global forumi doirasida yosh xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tadbirlar hamda Muloqot majlislarini o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, ilg'or tajriba almashinuvi faollashtirish va yil uchunida Muloqot faoliyati natijalarini sarhisob qilish bo'yicha muhim yo'nalishlar belgilab olindi.

Majlis ishtirokchilari mintaqaviy hamkorlikni, o'zaro ishonch va birdamlikni mustahkamlash, shu jumladan, xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni davom ettirish lozimligi haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

## NARKOTAHIDIDLARGA QARSHI KOMPLEKS YONDASHUV

Sammitda O'zbekistonning faol yoshlari tashabbusi bilan joriy qilingan "Antinarko" yoshlar front-ofislari volontyorlari harakati hamda "Al Hackathon" umummilliy loyihasining internet tarmoqidagi narkodo'konlarni va gijohvandlik vositalarini tarqatish holatlarini sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida aniqlash va bloklashga mo'ljallangan "QalqonAI", "Sentinel" va "NarkoGuard" kabi dasturlari namoyish etildi.

Shu bilan birga, "Biz gijohvandlikka qarshimiz" respublika videoreolliklar tanlovining g'oliblarini taqdirlash marosimi ham o'tkazildi.

Sammit yakunida zamonaviy narkotahdidlarga qarshi kompleks yondashuvlar ishlab chiqilib, Markaziy Osiyo yoshlari tomonidan mintaqaviy davlatlarning sohaga oid faoliyat olib borayotgan rasmiylariga yo'llangan Yoshlar murojaati qabul qilindi.



So'z – xalqaro anjuman ishtirokchilari

**Bo MATIASEN, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktori:**

Bugungi kunda narkojinoyatlar va bu illat targ'ibotida ijtimoiy tarmoqlar, kriptovalyutalar hal qiluvchi rol o'ynamoqda. O'zbekistonda esa gijohvandlikka qarshi kurashish, aholi, ayniqsa, yoshlarni bu illatdan asrash borasida davlat tomonidan muhim dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekistonda o'tgan yili alohida server tashkil etildi va ushbu turdagi jinoyatlarni barvaqt aniqlash, oldini olishga erishilmoqda. Hukumatning faol ish olib

borayotgani, Markaziy Osiyo davlatlari bilan keng ma'lumot almashilayotgani va o'zaro hamkorlik natijasida gijohvandlik moddalarini aylanmasining 60 foizi chegaralardayoq to'xtatilmog'ida. Bundan tashqari, sintetik narkotiklar ko'payishining oldini olish, psixotrop dori vositalarining noqonuniy muomalasini cheklash borasidagi ishlar ham diqqatga sazovor va ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish lozim.

**Tedros Adxanom GEBREYESUS, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori:**

Gijohvandlik va narkotahdidlar salomatlik uchun juda katta xavf. Bugungi kunda dunyo bo'yicha taxminan 300 mln. aholi gijohvandlik moddalarini iste'mol qiladi, ular safiga har yili 600 ming kishi qo'shilmog'ida, bu illatdan qurbon bo'layotganlar soni ham yildan-yilga oshib borayotir.

An'anaviy gijohvandlik bilan birga sintetik narkotik ulushi ham ko'paymoqda. Bu

**Abdulaziz YO'LDOshev ("Xalq so'zi").**

## Senatorlar – hududlarda

## YOSHlar SALOMATLIGI VA MA'NAViy TARBIYA MASALALARI E'TIBORDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Oral Ataniyazova Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonliko'l tumanida bo'lib, hududlardagi dolzarb muammolarni o'rgandi.

Xususan, Madaniyat mahallasida bo'lib o'tgan aholi bilan uchrashuvda Senatning 14-yalpi majlisida ko'rilgan masalalar yuzasidan ma'lumot berilib, fuqarolarning murojaat va takliflari tinglandi. Xususan, kuchli shamol oqibatida zarar ko'rgan xonadonlarga amaliy yordam ko'rsatish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Tuman hokimligi va mutasaddi tashkilotlar bilan o'tkazilgan muloqotda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, ishga joylashish imkoniyatlarini hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish masalalarini muhokama qilindi.

Senat a'zosi 21-umumta'lim maktabida ham bo'lib, yosh avlod kamolotidagi dolzarb masalalar yuzasidan pedagoglar bilan suhbatlashdi. Jumladan, yoshlar, ayniqsa, qizlarning reproduktiv salomatligi, sog'lom turmush tarzi va ma'naviy tarbiya masalalariga urg'u berildi.

Shu bilan birga, maktablarda outsorsing asosida yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligi o'rganildi. O'rganishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga berilayotgan taomlar tasdiqlangan menu talablariga to'liq javob bermasligi aniqlandi. Mas'ullarga kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, maktab hududida futbol maydonchasini barpo qilish masalasi ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, ushbu loyiha 550 nafarga yaqin o'quvchilar ta'lim olayotgan muassasada sport infratuzilmasini rivojlantirish va mahalla aholisining jismoniy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko'tarilgan masalalar senator tomonidan nazoratga olini hamda futbol maydonchasini grant asosida moliylashtirish uchun parlament huzuridagi Jamoat fondiga taqdim etish bo'yicha huquqiy tavsiyalar berildi.

## TENg HUQUQ HAMDA IMKONIYATLARNI TA'MINLASH – DOLZARB VAZIFA

Kecha poytaxtimizda qator tadbirlar bo'lib o'tdi. Xususan, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida "O'zbekneftgaz" AJ tizimidagi korxonaga va tashkilotlar rahbarlari hamda maslahat kengashlari a'zolari uchun xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan o'quv dasturining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

## Tadbir

Tadbir Oliy Majlis Senati tomonidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi hamda "O'zbekneftgaz" AJ bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Unda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova so'zga chiqib, gender tenglikni ta'minlash borasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati, sohadagi xalqaro yondashuvlar va eng yaxshi amaliyotlarni korporativ muhitga joriy etish muhimligi haqida so'z yuritdi.

O'quv kursi davomida ishtirokchilarga mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, xalqaro huquqiy normalar va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi haqida

batafsil ma'lumot berildi. Xususan, korporativ boshqaruvda gender auditi o'tkazish, tizimda "family-friendly" tamoyillarini joriy etish hamda xotin-qizlarning intellektual va kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv dasturi yakunida ishtirokchilar o'z tashkilotlarida inklyuziv ish muhitini shakllantirish va gender strategiyalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha tegishli ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Shuningdek, Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida uyushtirilgan "Yashil moda – kelajak nafari" mavzuidagi ko'rgazmada qatnashdi.

Tadbir ekologik barqarorlikni ta'minlash, moda sanoatida atrof-muhitga zarar

## MALAKA OSHIRISH KURSLARI FAOLIYATI TALAB DARAJASIDAMI?

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi B. Abdullayev boshchiligidagi ishchi guruh Qashqadaryo viloyatida ta'lim tizimidagi rahbar va pedagog xodimlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini o'rganmoqda.

## O'rganish

2025-yildan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlaridagi rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarning besh yilda bir marta malakasini oshirish tizimi joriy qilindi. Pedagog kadrlar "onlinedu.uz" maxsus elektron platformasi orqali onlayn hamda an'anaviy tarzda o'z tajribasini kuchaytirayotir.

Ishchi guruh Qashqadaryo

viloyatida rahbar va pedagog xodimlarning malaka oshirish kurslariga jalb qilinishi bilan tanishdi. Jumladan, 2025-yilda Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazida 12 058 nafar rahbar va pedagog xodim malaka oshirish kursida o'qitilib, sertifikat olgan. Joriy yilning yanvar – mart oylarida 2 827 nafar rahbar, pedagog va xodim maxsus kurslarda o'qitildi.

Viloyatda umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari uchun ham o'quv kurslari

tashkil etilgan. Jalb qilingan 97 nafar direktorning 33 nafari (34 foiz) ijiboy ko'rsatkich bilan sertifikatga ega bo'lgan, qolgan 64 nafar (66 foiz) ishtirokchining ko'rsatkichlari yakuniy sinov natijalariga ko'ra qoniqarsiz deb topilgan.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar uchun tashkil etilgan menejerlik o'quv kurslariga qabul qilingan jami 301 nafar tinglovchidan 127 nafari (42,2 foiz) ijiboy natijalar bilan kursni tamomlagan bo'lsa, 174 nafari (57,8 foiz) kursni muvaffaqiyatli tamomlay olmag'an.

Ishchi guruh Qarshi shahri va Shahrisabz tumani maktablarida bo'lib, rahbar va pedagog

xodimlar bilan suhbatlashdi, ularning malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflari bilan tanishdi.

Viloyatdagi pedagogik mahorat markazi faoliyati bilan ham tanishildi. Unda rahbar va pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishidagi ishlar bugungi kunda yangi avlod darsliklari hamda milliy o'quv dasturi talablariga qanchalik mosligi o'rganildi.

O'rganish yakunlari qo'mita hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining qo'shma majlisida muhokama qilindi.


"Xalq so'zi".

# INSON MANFAATLARI USTUVORLIGI VA HUDUDYIY RIVOJLANISH KAFOLATI

Majlisda chegaralarga o'zgartirishlar kiritish masalasi tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari, xalq deputatlari Qiziriq va Jarqo'rg'on tumanlari Kengashlari hamda viloyat Kengashida muhokama qilinib, chegaralarning kartografik chizmasi va chegaralar chizig'ining tasnifi ma'qullangani qayd etildi.

Xalq vakillari ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

## Aktam HAITOV, O'zLiDeP fraksiyasi rahbari:



Mazkur qaror bilan Jarqo'rg'on tumanidan Qiziriq tumaniga o'tkazilayotgan yer maydoni, avvalo, shu yerda yashovchi aholining ehtiyoji va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Qiziriq tumani hududining kengayishi esa yaylov yerlaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Ya'ni mazkur o'zgarishlar chorvachilik va boshqa tarmoqlarni jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Surxondaryo viloyatining tabiiy va iqlim sharoiti bu borada katta ustunlikka ega. Yangi o'zlashtiriladigan yer maydonlarini kam ta'minlangan oilalarga ajratish, poliz va sabzavotchilikni rivojlantirish orqali yiliga 1,2 ming tonna mahsulot yetishtirish rejalashtirilmoqda.

Mazkur masala yuzasidan qaror loyihasi deputatlar tomonidan ma'qullandi.

## Zarafshon shahri chegarasi o'zgaradimi?

Majlisda "Navoiy viloyatining Zarafshon shahri va Tomdi tumani chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi palata qarori loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, chegaralarga kiritilayotgan o'zgartirishlar bilan Navoiy viloyatining Tomdi tumanidan 2 459 gektar yer maydoni Zarafshon shahri tarkibiga o'tkazilishi belgilanmoqda.

Zarafshon shahri qurilish rejasini ishlab chiqilib, uy-joylar, sanoat, ijtimoiy soha va xizmat ko'rsatish obyektlari quriladi. Jumladan, uzoq muddatli biznes-rejaga asosan hududda 250 dan ortiq sanoat va ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish, 90 ta ijtimoiy soha obyekti, 500 dan ortiq savdo-maishiy va xizmat ko'rsatish nuqtalari barpo etish rejalashtirilgan.

Majlisda chegaralarga o'zgarishlar kiritish masalasi tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari, shuningdek, xalq deputatlari Zarafshon shahri va Tomdi tumani Kengashlari hamda viloyat Kengashida muhokama qilinib, chegaralarning kartografik chizmasi va chegaralar chizig'ining tasnifi ma'qullangani qayd etildi.

Munozaralarda ushbu masala yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

## Abdushukur HAMZAYEV, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari:



Kuni kecha ushbu masalani fraksiyada chuqur tahlil qildik, mutasaddilarga ko'plab savollarni berdik. Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Zarafshon shahri kengaytirish masalasi strategik asoslangan va kompleks yondashuv doirasida amalga oshirilmoqda. Bu qaror nafaqat hududiy o'zgarish, balki iqtisodiy transformatsiya uchun muhim qadamdir. Ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy baza - rivojlanish uchun mustahkam asos bo'ladi.

O'z navbatida, fraksiyamiz tomonidan yangi barpo etiladigan barcha loyihalarga ekologik yondashuv asosiy tamoyil bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan holda, bu borada o'z tavsiyalarimizni berdik.

## Aholi va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashga oid muhim talablar

Deputatlar xavfli ishlab chiqarish obyektlarining va potensial xavfli obyektlarning sanoat xavfsizligi bo'yicha munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama qildi.

Ushbu hujjat sanoat xavfsizligiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish hamda xavfli ishlab chiqarish obyektlari bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarning mas'uliyatini oshirishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasi bilan insonlarning hayotiga, sog'lig'iga, mol-mulkiga va atrof-muhitga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan - potensial xavfli obyektlar (liftlar, yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, travalatorlar, shamol elektr stansiyalari, atraksionlar) xavfsizligiga talablar qo'yilmoqda. Bu ushbu obyektlarning

xavfsiz ishlashini ta'minlash, aholiga ulardan foydalanishda xavfsiz muhit yaratish, yuz berishi mumkin bo'lgan avariya va ularning oqibatida kelib chiqadigan baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Loyiha bilan sanoat xavfsizligi yo'nalishida yangi institut - xizmatlar ko'rsatadigan ekspert tashkilotlari ham joriy etilmoqda. Ular xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarda ixtiyoriy asosda amalga oshiriladigan sanoat xavfsizligini boshqarish tizimining auditini o'tkazadi.

Qonun loyihasida xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligini boshqarish tizimining auditini institutini joriy etish ham nazarda tutilyapti. Bu orqali esa yangi bir tadbirkorlik yo'nalishi - ixtisoslashtirilgan xizmatlar bozori paydo bo'ladi. Tadbirkorlarga keng qulayliklar yaratilib, korxonalarda sanoat xavfsizligi doimiy nazorat qilib boriladi.

## Rahmatillo SHUKUROV, Tadbirkorlik, raqobati rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi a'zosi:



Mazkur hujjatda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida yuz bergan avariya oqibatida insonlarning hayotiga, sog'lig'iga va mol-mulkiga hamda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta summalarining eng kam miqdorini oshirish taklif etilmoqda. Bu fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va xavfsizligini kafolatli himoya qiladi.

## Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatining huquqiy asosi

Zamonaviy dunyoda innovatsiyalar va raqamlashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida asosiy drayverlarga aylandi. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib, axborot texnologiyalari sohasi qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro IT-kompaniyalarini jalb qilish orqali eksport salohiyati oshirilmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasining jadal o'sishi shiddat bilan rivojlanayotgan sanoatning chaqiriqlariga tezkorlikda javob bera oladigan, moslashuvchan va ilg'or normativ-huquqiy bazani yaratishni taqozo etadi.

Bunda bozor ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, investitsiyalarni jalb etish va sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar kabi ilg'or texnologiyalar bilan ishlovchi rezidentlar uchun shaffof va barqaror qonunchilikni yaratish asosiy omil hisoblanadi.

Texnologik kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi puxta va mukammal qonunchilik milliy raqamli ekotizimni global iqtisodiy makonga integratsiya qilish imkonini beradi. Xorijiy sheriklar uchun xavflarni kamaytirib, ilg'or texnologiyalarning kirib kelishini tezlashtiradi.

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat - "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'ladi.

Qonun loyihasi orqali Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini alohida hududda maxsus qonun bilan tartibga solish taklif etilmoqda.

Unga ko'ra, markaz hududida maxsus huquqiy rejimini yaratish (roy'xatga olish, litsenziyalash va tadbirkorlik tartib-taomillarini soddalashtirish, tijorat operatsiyalarini tartibga solishda xalqaro standartlarni qo'llash), moslashuvchan soliq va bojxona tartibini joriy etish (2100-yilgacha bo'lgan muddatga ayrim faoliyat turlari bo'yicha soliqlardan ozod qilish, asbob-uskunalar, texnologiyalar va materiallarni olib kirinishning soddalashtirilgan tartibi) taklifi ilgari surilmoqda.

Shuningdek, markaz ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish (roy'xatga olish va boshqarish uchun yagona darcha tashkil etish, intellektual mulk va investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari), davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik yo'nalishlarini belgilash (davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tartiblarini belgilash, biznes yuritishda ma'muriy to'siqlarni qisqartirish) nazarda tutilyapti.

Markaz ishtirokchilari uchun "yagona darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlarini ko'rsatish hamda nizolarni hal etishda xalqaro huquq normalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

## Korrupsiyaga qarshi kurashishda mahalliy Kengashlar roli oshiriladi

Bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan - xalq deputatlari Kengashlari



faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu hujjat mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish siyosatining huquqiy asosini mustahkamlaydi.

U bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining samaradorligi oshadi. Hududlarda korrupsiyaga qarshi kurashishda mahalliy Kengashlarning roli va ta'siri ortadi.

## Guldana AVEZDURDIYEVA, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi:



Qonun loyihasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rg'g'i Kengesi Raisi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari va Toshkent shahar Kengashining raislari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengash faoliyatiga boshchilik qilishi taklif etilmoqda. Ushbu norma korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini mustahkamlaydi. Va bu boradagi adolatni ta'minlaydi.

Loyiha bilan mahalliy Kengashlarning boshqa vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanishi nazarda tutilmoqda.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

## O'zbekiston Yangi taraqqiyot banki to'g'risidagi bitimga qo'shiladi

Deputatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qonun loyihasi - O'zbekistonning Yangi taraqqiyot banki (YATB) to'g'risidagi bitimga qo'shilishi masalasini muhokama qildi.

Mamlakatimizning mazkur bitimga qo'shilishi o'ziga xos tarixiy voqea sifatida milliy manfaatlarini ko'zlagan ochiq, pragmatik investitsiya siyosatining mantiqiy davomidir.

Hujjatga muvofiq, O'zbekiston 2014-yilda tashkil etilgan mazkur nufuzli moliyaviy institutga a'zo bo'lish orqali global investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishni maqsad qilgan.

Ta'kidlanishicha, ushbu hamkorlik iqtisodiyotni tarmoqlarini modernizatsiyalash, zamonaviy infratuzilmani barpo etish va uzoq muddatli imtiyozli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini sezilar darajada oshiradi.

Yangi taraqqiyot banki, avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma va barqaror rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashtirilgan bo'lib, unga a'zo davlatlar o'zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

## Jamol ACHILOV, Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari:



O'zbekistonning Yangi taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishi milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda muqobil va imtiyozli sarmoyalar oqimini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu hamkorlik mamlakatimizga xalqaro moliyaviy maydonda o'z manfaatlarini himoya qilish, energetika, infratuzilma, suv xo'jaligi va transport sohaslarida istiqbolli investitsiya loyihalarini imtiyozli shartlarda moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Yurtimizda yangi korxonalar va minglab ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Milliy brendlarni xalqaro himoya qilishda yangi bosqich

Majlisda "Kelib chiqish joyi nomlari va geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi Lissabon bitimining Jeneva aktiga (Jeneva, 2015-

yl 20-may) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun loyihasi ham obdan muhokama qilindi.

U mamlakatimizda intellektual mulkni muhofaza etish, milliy mahsulot va brendlarni xalqaro miqyosda ishonchli himoya qilish borasidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Loyiha bilan O'zbekiston Respublikasining Lissabon bitimining Jeneva aktiga qo'shilishi nazarda tutilmoqda. Ushbu xalqaro hujjat tovar kelib chiqqan joy nomlari va geografik ko'rsatkichlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazishning yagona mexanizmini belgilaydi.

Eng muhimi, ushbu hujjat mahalliy tadbirkorlarimizga yangi qulayliklar eshigini ochmoqda. Endi ular milliy brendlarimizni xalqaro maydonga olib chiqishda ortiqcha ovora bo'lmaydi va bekor xarajat ham qilmaydi. Ya'ni hududlarimizga xos, an'anaviy va milliy mahsulotlar bitta talabnoma orqali bir vaqtning o'zida Jeneva akti ishtirokchil davlatlarida muhofazaga olinishi mumkin bo'ladi. Bu esa milliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay, ixcham va samarali xalqaro himoya mexanizmini yaratmoqda.

## Umid YAKUBXODJAYEV, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:



Bunday mexanizm, avvalo, Marg'ilon atlas, Chust pichog'i, G'uzor tandir go'shti kabi yurtimizning o'ziga xos noyob mahsulotlarini xalqaro darajada huquqiy jihatdan himoyalash, ularning nufuzi va xaridorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy brendlarimizni tashqi bozorlarda keng targ'ib etish, eksport imkoniyatlarini oshirish, hududiy mahsulotlarning qo'shimcha qiymatini yuksaltirish hamda gastronomik turizmi rivojlantirish uchun ham yangi imkoniyatlar ochiladi.

Majlisda qayd etilganidek, ushbu hujjat O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish jarayonini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim qadam bo'ladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Ombudsman faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi

Deputatlar Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining Ombudsman faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan qonunchilik taklifini ko'rib chiqdi.

Hujjat 2024-yil 15-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun normalari ijrosini amalga samarali ta'minlashga qaratilgan. Mazkur qonunda Ombudsman qo'shimcha vakolatlar va ta'sir choralari berilgan edi.

Jumladan, Ombudsman inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida tashkilotlarga va mansabdor shaxslarga ogohlantirish, taqdimnoma, iltimosnoma va talabnoma kiritish huquqiga ega. Shu munosabat bilan Ombudsman institutining ushbu yangi vakolat va ta'sir mexanizmlarini amalga samarali qo'llash uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Loyihaga muvofiq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1974-moddasiga Ombudsmaning tegishli ta'sir choralari kiritilmoqda. Ya'ni mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaslik, uning ishiga to'sqinlik qilish, unga bila turib yolg'on axborot berish, xuddi shuningdek, mansabdor shaxslar tomonidan murojaatlarni, xulosalarni, taqdimnomalarni, iltimosnomalarni, ogohlantirish va talabnomalarni ko'rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish yoxud ular yuzasidan bila turib qasddan ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etganlik uchun javobgarlik aniq belgilanmoqda.

Muhokama davomida deputatlar mazkur o'zgartirishlar inson huquqlarining himoya mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qilishi, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Majlisda ushbu masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

## Taqdimot

# "YASHIL" TARAQQIYOT

Poytaxtimizda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tomonidan "Eco Expo Central Asia - 2026" xalqaro ko'rgazmasining taqdimoti o'tkazildi. Unda xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchilari, diplomatik missiyalar vakillari, BMT, YUNESKO, YUNISEF, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Global yashil o'sish instituti hamda boshqa qator nufuzli xalqaro tuzilmalar vakillari qatnashdi.

Tadbirida O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Xususan, o'rmonlashtirish, toza havo, chiqindilarni boshqarish va bioxilmaxillikni asrash bo'yicha keng qamrovli milliy dasturlar orqali O'zbekiston "yashil" iqtisodiyot sohasida mintaqaviy markaz sifatida namoyon bo'layotgani qayd etildi.

Xalqaro ko'rgazma joriy yil 31-may - 5-iyun kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tadi. Ushbu ko'rgazmaning GEFning VIII assambleyasi bilan bir vaqtda uyushtirilishi uning global ahamiyatini yanada oshirib, xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov ishtirok etdi.

"Xalq so'zi".

## Tahririyat pochtasidan

# "BIR YONI QULAGAN BINONING QOLGANI BARDOSHLIMI?"

"Xalq so'zi" gazetasi shu yil 14-fevral sonida ayni sarlavha ostida chop etilgan maqolada 2020-yilning 23-iyun kuni Qarshi shahrida qurilishi yakunlanmagan 5 qavatli binoning bir qismi qulab tushishi oqibatida bir ishchi halok bo'lganiga qaramasdan, keyinchalik bu obyektda qurilish ishlari davom ettirilib, endilikda foydalanishga topshirilish arafasida ekanligi ma'lum qilingan hamda mazkur binoning mustahkamligi qaysi mezonlar asosida kafolatlangani borasidagi savol o'rtaga tashlangan edi.



Gazetamizning Qashqadaryo viloyatidagi muxbir Jahongir Boymurodov muallifligidagi ushbu maqolada ko'tarilgan masala yuzasidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Jasur Jabborov o'z munosabatini bildirdi.

Unda ma'lum qilinishicha, Qarshi shahar, Islom Karimov ko'chasi, 245-uyda joylashgan "Nasaf-Travel" kompaniyasiga qarashli mehmonxona va restoran hududidagi 5 qavatli qo'shimcha bino qurilishida yuz bergan favqulodda holat qurilish jarayonida amaldagi shaharsozlik normalari hamda texnologik talablarga rioya etilmagan oqibatida sodir bo'lgan.

Ushbu obyektidagi qurilish-montaj ishlari Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 18-maydagi 370-qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan ma'muriy reglamentning 3-bandi talablariga zid ravishda xabarnoma yuborilmasdan amalga oshirilgan. Hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan murojimatiga belgilangan tartibda ogohlantirish xatlari berilgan hamda qurilish-montaj ishlari to'xtatish yuzasidan yozma ko'rsatma kiritilgan.

Toshkent shahridagi "Zilzilabardosh qurilish" ilmiy-loyiha markazi tomonidan binoning yuk ko'taruvchi qurilish konstruksiyalari texnik ko'rikdan o'tkazilib, 2020-yil 3-sentabrda konstruksiyalarni mustahkamlash bo'yicha ilmiy-texnik hisobot berilgan.

Mazkur instrumentall texnik tekshiruv natijasiga asosan, "Qarshi tadqiqot-konstruksiya" MCHJ tomonidan binoning mustahkamligini ta'minlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib,

loyiha hujjatlariga 2021-yil 27-oktabrda "Expertise Group" MCHJning 959-2021-sonli yig'ima ijobiy ekspert xulosasi olingan. 2023-yil 19-yanvarda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xo'jaligi sohasida nazorat qilish boshlash uchun Buyurtmachi tomonidan yuborilgan xabarnomaga asosan, obyekt qurilishi Hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan ro'yxatga olingan. Bugungi kunda mazkur obyektida qurilish ishlari shu inspeksiya tomonidan tasdiqlangan loyiha hujjatlariga asosida amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan tizimli davlat nazorati o'rnatilgan. Xususan, o'tkazilayotgan monitoringlar natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan berilgan majburiy yozma ko'rsatmalar belgilangan muddatlarda bajarilmaganligi sababli obyektga birkirtilgan texnik va mualliflik nazoratchilariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MjtKning 99-moddasi talablariga asosan ma'muriy chora qo'llanilgan.

Hozirgi kunda pudratchi "Nasaf-Travel" kompaniyasi tomonidan mazkur loyiha talablari asosida binoning mustahkamligi ta'minlanib, obyektida loyiha asosida ichki suvoq ishlari bajarilgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, obyektning topshirish-qabul qilish va foydalanish uchun ruxsatonoma berish ishlari Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 20-apreldagi 200-qarorining 6-ilovasi bilan tasdiqlangan ma'muriy reglament talablariga ko'ra loyiha hujjatlarida belgilangan ishlar barchasi yakunlangandan so'ng vakolatli idoralarning ijobiy xulosalari asosida amalga oshiriladi, deyiladi javob xatida.

"Xalq so'zi".



# AGRAR TA'LIM VA ILM-FAN RAVNAQIDA YANGI BOSQICH

Bugungi global iqlim o'zgarishlari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq yangi talablar agrar sohada raqobatdoshlikni oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish hamda samaradorlikni ta'minlashni ta'kid etmoqda. Shu ma'noda, mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida kreativ fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Ilm va izlanish bo'lmagan sohada taraqqiyot ham bo'lmaydi. Chunki bugun dunyo taraqqiyoti raqobat, innovatsiya va texnologiyalar bilan o'lchanmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida ilm-fanni rivojlantirmay turib, yuksak samara hamda natijalarga erisholmaymiz. Shu nuqtai nazaridan, Prezidentimizning 11-apreldagi "Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz agrar ta'limi va ilm-fani rivojlantirishini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

## Nuqtai nazar

### An'anaviy faoliyatdan agroxiizmatlar ko'rsatish tizimigacha

Aytish joizki, ushbu qarordan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, agrar ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni zamonaviy talablar va xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etishdan iborat. Shu bilan birga, ta'lim, ilm-fan hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy integratsiyani kuchaytirish, talabalarining amaliy ko'nikmalarini oshirish va raqobatdosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ayni paytda hujjat ijrosi doirasida agrar sohada innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish va ularni tijoratlashtirish orqali sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirish rejalashtirilgan. Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali milliy agrar ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiyalash asosiy yo'nalish sifatida qabul qilindi.

Shubhasiz, ushbu islohotlar mamlakatimizda agrar soha kadrlari sifatini tubdan oshiradi. Ya'ni ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani natijasida yoshlar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashni bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan uyg'un holda o'zlashtiradi. Bu esa malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Qarorda belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi natijasida

shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatda bittadan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyati muvofiqlashtiriladi. Maktablarda 7 – 11-sinf o'quvchilari uchun tabiiy fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish, maxsus laboratoriyalar tashkil etilishi o'quvchilarda tabiiy fanlarga qiziqishni oshirishi, kelgusida malakali kadrlar tayyorlash uchun mustahkam poydevor yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Kooperatsiyaning eng muhim ustunliklaridan biri – yoshlarni kasbga to'g'ri yo'naltirish. Shu maqsadda yo'lga qo'yilgan "Dala kunlari" tadbirlari orqali o'quvchi va talabalar bevosita qishloq xo'jaligi maydonlarida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini yaqindan kuzatadi. Ular ilg'or agrotexnologiyalar hamda zamonaviy oziq-ovqat ishlab chiqarish usullari bilan tanishib, nazariy bilimlarini amaliyot bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2026/2027 o'quv yilidan boshlab universitet huzuridagi Qibray akademik litseyida "Muhandislik guruhi" tashkil etiladi. Unda ta'lim jarayoni 2 yillik dastur asosida "STEM+HECI" moduli bo'yicha yo'lga qo'yiladi. Bu o'quvchilarda texnik fikrlash, innovatsion yondashuv va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga yosh avlodda tejamkorlik, tasavvurni kengaytirish hamda axloqiy normalarni tushunishga yordam beradi.

2027/2028 o'quv yilidan esa akademik litseyda xalqaro "A-level" ta'lim dasturi joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Bu borada "Cambridge Assessment International Education" va "Pearson" kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, ta'limning xalqaro standartlari joriy etiladi hamda o'quvchilarga jahonning yetakchi universitetlariga to'g'ridan-to'g'ri yo'l ochadigan xalqaro darajadagi bilim berish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, 2026/2027 o'quv yilidan boshlab tabiiy fanlar yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi. Ushbu tashabbus doirasida Xitoy, Turkiya, Vengriya, Polshaning ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatiladi. Biologiya va kimyo yo'nalishida tahsil olgan o'quvchilar keyinchalik agrar soha bo'yicha yetuk mutaxassis sifatida bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsilni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### Nazariy bilim va amaliy tajriba uyg'unligi

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda nazariya va amaliyot birlashgan joyda samaradorlik bir necha barobar ortadi. Ana shu tamoyilga tayangan

holda talabalarining bilim hamda ko'nikmalarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash maqsadida dual ta'lim tizimi joriy etilmoqda.

Agar universitetning qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va agromuhandislik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun dual ta'lim tizimi joriy etilishi muhim voqea bo'ldi. Toshkent davlat agrar universiteti va "Chirchiq Agro-Tech klaster" MCHJ o'rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida dual ta'lim dasturi asosida bugungi kunda 75 nafar talaba "4+1" shaklida ta'lim olmoqda.

Mazkur tashabbus doirasida universitet talabalarini Chirchiq shahridagi "Chirchiq Agro-Tech klaster"da nazariy bilim bilan birga ishlab chiqarish muhitida amaliy tajriba to'plash imkoniyati yaratildi. Talabalar eng zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarida jihozlari bilan ishlash, murakkab texnologik jarayonlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnikalarni yaratish jarayonida bevosita ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, talabalar ta'lim olishi hamda ishlashi uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratildi, ular transport, oziq-ovqat va ish haqi bilan ta'minlanmoqda.

E'tiborsiz, agrosanoat hamda ishlab chiqarish korxonalarini bilan bu kabi o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yanada kengaytirilib, universitet tomonidan o'shanki yetakchi korxonaga ta'dinotlar bilan dual ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilmoqda. Shu o'rinda O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'lanlashga qarshi kurashish agentligi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, shuningdek, "Leo Garden", "Agro Light Business", "Multi Flora", "Promeat", "Ro'zmetov" hamda "Safia Cafe & Bakery" kabi ishlab chiqarish va

xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini bilan hamkorlikni qayd etish lozim.

Yuqoridagi qaror bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda agrar universitetning loyiha ofislari ochilishi ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, yoshlarning innovatsion g'oya hamda startaplarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or agrotexnologiyalarni tatbiq qilishda oliyohamda amaliyot o'rtasida mustahkam ko'priklar yaratiladi.

### Yangi avlod agronomlari

Yana bir muhim jihat, davlatimiz rahbarining tashabbusi asosida "Yangi agronom" dasturi joriy etilmoqda. Ushbu tizim doirasida 2 va 3-bosqichdan izlanuvchan va tashabbuskor talabalar saralab olinib, amaliyot uchun ilg'or fermer xo'jaliklariga birlashtiriladi.

"Yangi agronom" tizimining asosiy vazifasi zamonaviy bilim va ilmiy izlanishlarga tayangan, innovatsion fikrlaydigan, yangi navlar, intensiv texnologiyalar va resurs tejoychi yechimlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda ta'lim klasteri prinsipi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, "universitet – ilmiy muassasa – fermer xo'jaligi – klaster" o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Mazkur tashabbus orqali zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega yangi avlod agronomlari shakllanadi. Hosildorligi past xo'jaliklarda ilmiy yondashuv kuchayib, samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar joriy etiladi. Shuningdek, suv tejoychi va raqamli agrotexnologiyalar, qishloq xo'jaligida sun'iy intellektdan foydalanish amaliyoti kengayadi. Natijada klaster va fermerlar o'rtasida ilg'or tajriba almashinuvi kuchayib, innovatsion texnologiyalarni qo'llayotgan xo'jaliklar soni ortib boradi.

Agar universitet huzurida tuziladigan Yangi agronomlarni tayyorlash jang'armasi yoshlarning amaliy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy va innovatsion loyihalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. U orqali talabalar va yosh mutaxassislarining ilg'or g'oyalari rag'batlantirilib, amaliyotga tezkor joriy qilinishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Jang'arma mablag'lari, avvalo, talabalarining amaliy ko'nikmalarini oshirish, tajriba-sinov maydonlarini tashkil etish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga integratsiya qilishga yo'naltiriladi.

Bunday yondashuv natijasida "Yangi agronom" tizimining samaradorligi oshib, ilmiy bilim va amaliy tajribaning uzviy uyg'unligini ta'minlaydigan samarali tizim shakllanadi. Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi mustahkam hamkorlik orqali sohaga zamonaviy fikrlaydigan, raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar kirib keladi.

**Narzullo OBLOMURODOV,**  
Toshkent davlat agrar universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

REKLAMA

## O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

### TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimiga tanlov e'lon qiladi

1.	Tolali materiallarni dastlabki ishlab	dotsent
2.	Mexanika muhandisligi	assistent
3.	Mehnat muhofazasi va ekologiya	assistent
4.	To'qimachilik matolari texnologiyasi	dotsent
5.	Ipak va yigirish texnologiyasi	kafedra mudiri professor
6.	O'zbek va xorijiy tillar	assistent
7.	Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring	katta o'qituvchi assistent
8.	Moda va dizayn	professor detsent assistent
9.	Buxgalteriya hisobi va marketing	assistent
10.	Iqtisodiyot va menejment	katta o'qituvchi assistent
11.	Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat	dotsent
12.	Aniq va tabiiy fanlar	katta o'qituvchi assistent
13.	Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limi Parij xalqaro moda akademiyasi (Fransiya AICP)	assistent

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalarini topshiradi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedra hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadi.

**Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona. Tel.: 71-253-17-78.**

## O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI TASARRUFIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTAB-INTERNATI

2026/2027 o'quv yiliga 2019-yilda tug'ilgan iqtidorli o'g'il va qizlarni tasviriy san'at va musiqa yo'nalishlari bo'yicha 1-sinfga rus va o'zbek tillarida o'qish hamda 5-sinfga o'zbek tilida tahsil uchun tanlov asosida o'qishga qabul qiladi. Hujjatlar 2026-yil 1-iyundan 30-iyungacha qadar quyidagi manzilda qabul qilinadi: 100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-daha, 1-"A"uy, RISM. Qabul imtihonlari 2026-yil 1-iyuldan boshlanadi. Telefonlar: 71-274-92-21, 71-274-96-45.

## 25 – 30-aprel kunlari Xiva shahrida "Lazgi" III xalqaro raqs festivali bo'lib o'tadi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nuxsada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaning manzili:**  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.10 Topshirildi – 00.10 1 2 3 4 5 6

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir S. Manirov.  
Musahhib S. Islomov.



Aslida esa biz tabiatning ajralmas bir qismi hisoblanamiz. Demak, tabiatga munosabat – o'zligimizga munosabat bilan chambarchas bog'liq. O'zimiz tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz tomgan tabarruk zamini asrash, uni e'zozlash eng muqaddas burchimizdir. Zotan, bu zamin ota-bobolarimizdan qolgan meros. Ular yerni qadrlashni, daraxtlarni avaylashni, qushlarni asrashni, tabiatga o'z o'rni bermaslikni hayot qonuni deb bilgan. Sirdan qaraganda oddiy holdek tuyulgan ba' a'mol yuksak ma'naviyat namunasi ekanini, ana shu an'analar bardavom bo'lishi kerakligini barcha chuqur anglab yetmog'i o'ta muhim. Chunki kelajak avlodga qanday tabiat qoldirishimiz – bevosita o'z qo'limizda.

Darhaqiqat, farzandlarimiz, yosh avlod ongiga singdirishimiz lozim bo'lgan eng muhim haqiqat shu: ona tabiat – aziz, zamin – muqaddas. Ularni asrash esa burchgina emas, insoniylikning yorqin ifodasidir. Shu jihatdan 22-aprel sanasida ana shu muammolarga e'tibor qaratilib, turli mamlakatlarda odamlar sayyoramiz yagonaligini his etishga, ona Yerni himoya qilishga chorlanadi. Bundan ko'zlangan maqsad – yer resurslaridan samarali foydalanish, ona zaminni ko'z qorachig'idek asrash va atrof-muhitni, tabiatni bezovola saqlashga e'tiborli bo'lishga chaqirishdir.

Bugun biz yashab turgan Yer sayyorasi paydo bo'lganiga qariyb to'rt yarim milliard yil bo'lgani aytilmoqda. E'tiborli jihati shundaki, Yerning 29 foizdan ziyodi quruqlikni, qolgan qismi dengiz va okeanlarni tashkil etadi. Iqlim o'zgarishi, muzliklar erishi hamda dengiz sathining ko'tarilishi, anomal issiq, oziq-ovqat xavfsizligi va tanqisligi, qurg'oqchilik, qishloq xo'jaligidagi muammolar shu qadar ko'payib ketdiki, bugun insoniyat go'yo boshi berk ko'chaga kirib qolgan.

Joriy yilda mamlakatimizda ekologik barqarorlikka erishish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish, tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil" transformatsiyasini amalga oshirish, iqlim o'zgarishiga moslashish, uning oqibatlarini yumshatish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash, iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modelini joriy etish bo'yicha ko'plab muhim vazifalar bajarilmoqda. Zotan, tabiatga qaratilgan e'tibor zamirida inson qadrini ulug'lashdek ezgu tamoyil muvaffaqiyatli qo'llanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertzasini amalga oshirish, turli toifadagi qo'riqlanadigan hududlarni tashkil etish va ularda alohida foydalanish rejimini o'rnatish tartib-tamoyillari hamda boshqa masalalarni belgilab bergan 30 dan ortiq

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").